

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## ISLOM DINIDA OTA-ONAGA BO'LGAN HURMAT

### RESPECT FOR PARENTS IN ISLAM

### УВАЖЕНИЕ К РОДИТЕЛЯМ В ИСЛАМЕ

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Raxmatova Parizoda Davronovna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali TTKT fakulteti AKT 23-01 guruh talabasi

Telefon raqami: +998883312208

Electron pochta manzili: [rakhmatovap22@iclude.com](mailto:rakhmatovap22@iclude.com)

#### Anotatsiya:

Ushbu maqolada ota-onaga bo'lgan munosabat, farzandlarni ular oldidagi burchi, islom dinida ota-onani o'rni qay darajada ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Oqil kishi, Islom dini, payg'ambar, Qur'on, hadis, oila, duo.

Inson tafakkurga buyurilgan. Har bir odam o'zi, tevarak-atrofi haqida fikr yuritishi, voqea-hodisalarni aql tarozisidan o'tkazishi zimmasidagi majburiyat hisoblanadi. Bani bashardagi boshqa mavjudotlardan farqi ham uning ong-u shuuri, aql va tafakkuridir. Oqil kishi o'zi haqida tafakkur qilar ekan, uning INSON bo'lib shakllanishiga sabab bo'lgan omillarni birma-bir mulohaza qiladi. Onasi qornida ekanida yuragi ilk bor urganini anglaydi. To onasi vujudidan ajralib, dunyoga birinchi kun mehmon bo'lishigacha g'amxo'rlik qilgan otasi mehnatlarini ko'z oldiga keltiradi. Tafakkur quvvati uning bir parcha go'sht holidan barkamol insonga aylanganicha sodir bo'lgan voqea-hodisalarni birma-bir ko'z oldidan o'tkazish imkonini beradi.

Inson o'z oilasi, yaqinlarini sevishi uchun ham bilim, fikrlash zarur. Shunda uning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan volidasining zahmatini, padari buzrukvorining marhamatini, bobo-buvilarining sabr-toqatini, aka-opalarining muruvvatini, qavm-qarindoshlarining samimiy mehr-muhabbatini his qiladi. Ota-onaga hurmat tarbiyaning a'losi, inson odobining kamoli, mukammal axloq toji, insoniylik talabi, qalb safosi, umr ziyosidir.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://iiaau.uz/oz/news/2078>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Agar e'tibor qilsak, oyati karimaning avvalida Qur'onning ajoyib mo'jizasi zohir bo'lmoqda. Arab tilining qoidalariga muvofiq, «Robbingiz sizga faqatgina O'zigagina ibodat qilishingizni va ota-onangizga yaxshilik qilishingizni buyurdi», – deyish kerak edi. Lekin jumla muhotob bilan kelib, birdaniga ko'plikka o'tib ketyapti.

«Robbingiz faqat O'zigagina ibodat qilishingizni va ota-onalarga yaxshilik qilishingizni buyurdi», deyilmoqda. Buning bilan inson nafaqat o'zining ota-onasiga yaxshilik qilishi kerakligi, balki har bir ota-ona yoshiga yetgan keksa yoshdagi kishilar yoshlardan, o'z farzandi tengilardan doimo hurmat ko'rishga haqli ekani ma'lum bo'ladi.

«Agar ulardan biri yoki ikkovi ham sening huzuringda keksayib qolgan bo'lsa, ey farzand, sen ularga aslo «uff» deya ko'rma. Ularni jyerkima, ularga shafqat qanotingni yoz va, aytginki, Robbim, ota-onam meni go'dakligimda tarbiya qilganlaridek, endi Sen ularga rahm qil».<sup>2</sup>

Islom dini insonning to'g'ri yo'ldan adashib ketmasligi uchun har bir ishda o'z ko'rsatmalarini berib boradi. Shu jumladan, ota-ona haqlarini farzandlar zimmasiga yuklab, ularga doimo hurmatda bo'lishga buyuradi. Qur'oni karimning ko'plab oyati karimlarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularning roziliklarini topishga amr qilinadi. Ota-onaga zinhor ozor bermaslik va ularning so'zlariyu fe'llarini hech malol olmaslikka buyuradi. Bu haqda Alloh taolo Isro surasida shunday marhamat qiladi: «Robbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga «uf!» dema va ularni jyerkima! Ularga doimo yoqimli so'z ayt» (Isro surasi, 23 oyat)<sup>3</sup>. Mazkur oyatda Alloh taolo o'ziga ibodat qilishga chaqirgan amridan keyin ota-onaga yaxshilik qilishni ta'kidlamoqda. Bu hol o'z navbatida Islomda ota-onaning haqqi qanchalik ulug' ekanini bildiradi.

Dini Islom faqat og'izlarda qolib ketadigan din emas, faqat og'zaki ko'rsatmalar beradigan din ham emas. Ushbu oyat bunga misoldir. Oyatning boshida Alloh taolo «Ularni jyerkima, ularga «uff» dema, ularga shafqat qanotingni yoz», deya og'zaki ko'rsatmalar berib keladi-da, oyat oxirida amaliyotga o'tiladi, farzandga topshiriq beriladi: «Sen endi duo ham qil». Duo bu – amaliyot. Robbim,

<sup>2</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/09/jannatga-yol-ota-ona-orqali-otadi-islomda-farzandlik-majburiyatları>

<sup>3</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/09/jannatga-yol-ota-ona-orqali-otadi-islomda-farzandlik-majburiyatları>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ota-onam meni go‘dakligimda tarbiya qilganlaridek, endi sen ularga rahm qil», deb duo qilishga buyurilmoqda.<sup>4</sup>

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham ko‘plab hadisi shariflarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularning xizmatlarini qilib, duolarini olishga targ‘ib qilganlar.

Jumladan: “*Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan: “Amallarning qaysi biri afzal?”*, – deb so‘radim. “*Vaqtida o‘qilgan namoz*”, – dedilar. “*Keyin nima?*”, – dedim. “*Ota-onaga yaxshilik qilish*”, – dedilar” (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati)<sup>5</sup>.

Suyukli Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ota-onadan yetim qolgan bo‘lsalar ham, emizgan onalariga nisbatan yuksak hurmat na‘munalarini ko‘rsatganlar. Ibn Sa‘dning “*Tabaqot*” kitobida yozilishicha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Xadicha onamizga uylanib, Makkada yashab turganlarida yonlariga Halimai Sa‘diya kelib:

“*Qahatchilik tufayli hayot kechirish juda ham qiyinlashib ketdi, qurg‘oqchilikdan hayvonlar qirilib ketmoqda*” – deb aytadilar. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Xadicha onamiz bilan maslahatlashib unga qirqta qo‘y va bitta tuya beradilar.<sup>6</sup>

Hatto bir kuni Halimai Sa‘diya Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam yonlariga kelganida o‘rinlaridan turib: “*Onajon!, onajon!*”, – deb hurmat va muhabbat ko‘rsatganlari, ridolarini yerga solib unga o‘tqazganlari ham naql qilingan. Halimai Sa‘diya roziyallohu anho Madinadagi Baqi‘ qabristoniga dafn qilingan.

Dono xalqimizda “*Nimani eksang, shuni o‘lasan*”, “*Ota rozi – Xudo rozi*” kabi ajoyib hikmatlar bor. Har bir erkak va ayol bu hikmatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, o‘zini o‘nglashi, xato qilgan bo‘lsa, darrov ota-onalaridan uzr so‘rab, ularning ko‘nglini topish, dillaridan ozorni ketkazish payida bo‘lishi darkor!

<sup>4</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/09/jannatga-yol-ota-ona-orqali-otadi-islomda-farzandlik-majburiyatleri>

<sup>5</sup> [https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Mazkur%20oyatda%20Alloh,Imom%20Muslim%20rivoyat%20i\).](https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Mazkur%20oyatda%20Alloh,Imom%20Muslim%20rivoyat%20i).)

<sup>6</sup> <https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Suyukli%20Payg%E2%80%98ambarimiz%20sollallohu,bita%20tuya%20beradilar.>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Tobeinlardan biri Muhammad ibn Munkadir rahmatullohi alayhi har kuni onalarining oyoqlari ostiga yotar va: *“Ey, onajon, yuzimni oyoqlaringiz bilan bosib o‘ting va mening yuzlarimni do‘zaxdan qutqaring”*, – der ekan”.<sup>7</sup>

Ota-onasi vafot etganlaridan keyin ham yaxshilik qilishni istagan farzandlar ota-onalari nomidan xayru sadaqa va ehsonlar qilsinlar. Qilgan sadaqalari savobini ota-onalariga bag‘ishlasalar, manfaati ularga yetadi. Ota-onadan so‘ng ularning qarindoshlariga, do‘st va dugonalariga yaxshilik qilgan farzand xuddi ota-onasiga yaxshilik qilgan bilan barobar bo‘lib, umriga ham baraka beriladi. Farzand ota-onaning roziligini olish uchun quyidagi amallarni bajarishi tavsiya etiladi.

- Avvalo, barcha ishlarda ota-onadan maslahat olish;
- Ota-onaning nasihatlarini jonu dili bilan qabul qilish;
- Gaplashganda muloyim, yoqimli so‘zlar bilan muomala qilish;
- Biror xizmat buyursalar, “labbay”, deb uni bajarish;
- O‘ziga xush ko‘rgan narsalarni ularga ham ravo ko‘rish;
- Ularning oldida baland ovozda gapirmaslik;
- Ularga “uf” yoki “uh” demaslik;
- Ota-onadan oldin taomga qo‘l uzatmaslik;
- Ota-ona kirib kelganda o‘rnidan turish va ulardan oldin o‘tirmaslik;
- Ota-ona huzurida oyoqlarini cho‘zmaslik, yonboshlamaslik;
- Ulardan yuqorida o‘tirmaslik;
- Ota-ona dam olayotganda ularni bezovta qilmaslik, oldilariga ruxsatsiz kirmaslik;
- Ota-onaning ko‘ngillarini topib, roziligini olish;
- Ota-onaning oziq-ovqati, kiyim-kechagi va sog‘lig‘idan o‘z vaqtida xabar olish;
- Duo qilganda ota-onasining haqlariga alohida duo qilish.

Alloh taolo barchamizni imon va islomda sobit qadam qilsin, bizni tarbiya qilgan ota-onalarimizni hamisha duogo‘y bo‘lishlarini nasib qilsin..”<sup>8</sup>

<sup>7</sup><https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Hatto%20bir%20kuni,qutqaring%E2%80%9D%2C%20%E2%80%93%20der%20ekan.>

<sup>8</sup><https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Ota%20Donasi%20vafot,bo%E2%80%98lishlarini%20nasib%20qilsin..>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Eng avvalo, onaga juda e'tiborli bo'lish kerak. Uni ranjitadigan so'z va harakatlardan tiyilmoq lozim. Alloh Muso alayhissalomga shunday dedi: «Ey, Muso! Bir kishi ota-onasiga qarshi chiqib, tili bilan ularni va yoki ulardan birini xafa qilsa, o'sha kishining tilini kes (tiy, to'xtat)! Har qanday bir a'zosi bilan ularga yoki ulardan biriga ozor bergan farzandning o'sha a'zosini kes!».

Kimki ota-onasini rozi qilib, ularning xayrli duolarini olsa, o'sha kishi uchun jannatdan ikki eshik ochiladi. Ota-onasi rozi bo'lmagan kishi uchun esa jahannamdan ikki eshik ochiladi. Ota-ona farzandga nisbatan zulm qilsalar ham ularga qarshi turilmaydi, qarshi chiqilmaydi. Chunki Alloh taolo Muso alayhissalomga shunday dedi:

*”Ey, Muso! Gunohlar ichra shunday bir gunoh borki, og'irligi dunyodagi tog'larning og'irligicha keladi”. ”Allohim! O'sha qanday gunoh?!”*

deb so'radi Muso alayhissalom. Alloh taolo marhamat etdi: *”Ota-onasi yoki ulardan biri chaqirganda, farzandning javob bermasligi!”*

Xulosa qilib aytganda Alloh taoloning g'azabidan qo'rquvchi kishi ota-onasini ranjitmaydi, qanday qilib bo'lsa ham ilojini topib, ularning ko'nglini, roziligini va duolarini oladi. Hatto xafa qilsalar ham, farzand ularga qarshi bosh ko'tarmaydi, ularning istaklariga, ko'ngillariga qaraydi. Agar ular yanglish, xato va harom ishni taklif etsalar, ularga buni juda muloyim tarzda bildirishi, ishontirishi va ogohlantirishi lozim bo'ladi. Ota-ona ozor bersa, ranjitsa, og'ir so'z aytsa ham darhol qo'llarini o'pib, yumshatish, duolarini olishga kirishish kerak. Ularga sovg'alar berish ularni sevintirish va ko'ngillarini topishning eng qulay yo'lidir. Ota-ona keksa bo'lsa, ularga yordam berish va yolg'iz qoldirmaslik kerak. Boshqalarning ular bilan yengil-yelpi muomalalariga yo'l qo'yimaslik, xizmatlarini to'la ado etish uchun qo'ldan ne kelsa bajarmoq lozim. Farzand kichik paytida ota-ona unga qo'l-qanot bo'ldilar. Yemadilar, yedirdilar. Kiymadilar, kiydirdilar. Kenglik-tanglik, bor-yo'q, issiq-sovuq demadilar. Xizmatdan qochmadilar. Ota-onaning duoyibadi – yoydan uchgan o'q, orqaga qaytmaydi. Nishonga tegadi. Vayron qiladi. Ota-onasi rozi bo'lgan farzanddan Alloh ham rozi bo'ladi. Ota-ona kechirmagan farzandni Alloh g'azabiga oladi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida shunday dedilar: *”Jannat – onalar oyog'i ostidadir”*. Bu hadisning majoziy ma'nosi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ma'noni ummatga ramzli, qisqa, badiiy va go'zal bir tarzda yetkazmoqdalarki, aqli bor odam buni anglaydi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Oyoqdan murod – onaning roziligi, jannatdan murod – Allohning roziligidir. Boshqacharoq aytganda: “Onaning rizoligini olsang, Allohning rizoligi (jannat)ga yetgan bo‘lasan!”. Jannatga kirishga loyiq bo‘lish uchun ota-ona roziligini olish zarur. Ularni xushnud va xursand qilish zarur.

Alloh taolo Muso alayhissalomga marhamat etdi:

”Ey, Muso! Ota-onasiga yaxshi muomalada bo‘lib, ularning roziligini olgani holda Menga osiy bo‘lgan qulimni Men yaxshi qullarim qatorida yozaman. Aksincha, Menga qullik xizmatida qusuri bo‘lmasa ham, ota-onasiga yaxshiliklar qilmay, yaxshi muomalada bo‘lmay, ota-ona roziligini olmagan qulimni esa osiyilar qatorida yozaman!”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. <sup>1</sup> <https://ii.au.uz/oz/news/2078>
2. <sup>1</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/09/jannatga-yol-ota-ona-orqali-otadi-islamda-farzandlik-majburiyatlari>
3. <sup>1</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/09/jannatga-yol-ota-ona-orqali-otadi-islamda-farzandlik-majburiyatlari>
4. <sup>1</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2020/05/09/jannatga-yol-ota-ona-orqali-otadi-islamda-farzandlik-majburiyatlari>
5. <sup>1</sup> [https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Mazkur%20oyatda%20Alloh,Imom%20Muslim%20rivoyati\).](https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Mazkur%20oyatda%20Alloh,Imom%20Muslim%20rivoyati).)
6. <sup>1</sup> <https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Suyukli%20Payg%E2%80%98ambarimiz%20sollallohu,bitta%20tuya%20beradilar.>
7. <sup>1</sup> <https://xojabuxoriy.uz/?p=64&lang=uz#:~:text=Ota%20Donasi%20vafot,bo%E2%80%98lishlarini%20nasib%20qilsin.>

